

YOSH YURAKLAR YOLQINI

Hikoyalar

Ulug'bek Hamdam
Isajon Sulton
Jahongir Xolmirzayev
Luqmon Bo'rixon
Zulfiya Qurolboy qizi
Nargiza G'ulomova
Mayago'zal Choriyeva

G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent -2003

To'plovchilar: Rahimjon Otayev va Nazira Jo'rayeva
Muharrir: Jonibek Subhon

Hikoya jahon adabiyotining ham, zamonaviy o'zbek nasrining ham eng ixcham, dolzarb, hozirjavob va ayni chog'da mas'uliyatli janridir. O'zbek yozuvchilarining hikoyachilikdagi an'analari qanday davom ettirilayotir - bu ko'pchilikni qiziqtiradigan savoldir.

Vatanimiz mustaqilligining 12 yilligiga bag'ishlab chop etilayotgan mazkur mo'jaz to'plam o'zlarining dastlabki asarlari bilan adabiy jamoatchilik e'tiborini tortayotgan iste'dodli yosh yozuvchilarning hikoyalaridan tuzildi. Kitobcha mualliflarning ijodiy izlanishlari bilan yaqindan tanishish va yosh yuraklar yolqinini dildan his qilish imkonini beradi.

«YOSH YURAKLAR YOLQINI»

Yurakda yongan olov yolqinini badiiy so'z vositalarida kitobxonning qalbiga "jiz" etib tegadigan darajada ifoda etish har kimning ham qo'lidan kelmaydi. Buning uchun adabiy qobiliyat, did, mehnat va mahorat talab qilinadi.

Mazkur to'plamdagi hikoyalarga shu nuqtai nazardan yondashganda, istiqloq yillarida adabiyotimizga kirib kelgan yosh adiblarda qobiliyat, did va mahorat ham borligini sezib mamnun boiasiz.

"Muvozanat" romani bilan adabiy jamoatchilikka tanilgan Ulug'bek Hamdam "Lola" hikoyasini teran ma'noli bir ramz asosiga quradi. Afsonaviy go'zal lola bahaybat tog'ning qo'l yetmas qoyasi uchida shunday bir joziba bilan tebranib turadiki, bani inson uning sehriga qanday berilganini o'zi sezmay qoladi, barcha xavf-xatarlarga qaramay lola turgan cho'qqiga intiladi. Voqea birinchi shaxs nomidan hikoya qilinadi. Tog'ning xatarli uchmalaridan qulab ketib halok bo'layotganlar oz emas. Hikoya qahramoni buni ko'rib tursa ham, beixtiyor toqqa tirmashib chiqa boshlaydi. Lolada go'yo u Ka'bani eslatuvchi ilohiy bir joziba kuchini sezadi. Ayni vaqtda lola tabiiy go'zallik, mukammallik va baxt timsoli. Odam unga yaqinlashgan sari yuragi quvonchga, hayot lazzatiga to'lib-toshadi. Lekin bu baxt va lazzat manbaiga boshqalar ham mushtoq. Shuning uchun lola turgan cho'qqi yo'lida raqobat, rashk, kurash... Hikoya qahramoni tengsiz mashaqqatlar bilan bir qoyaga ko'tariladi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, uning maqsadi yo'ida odamzod yetib borishi amrimahol bo'lgan yana son-sanoqsiz qoyalar turibdi. Endi lola mutloq haqiqat timsoli bo'lib tuyuladi. Unga yaqinlashib borasan, ammo